

II. O'QUV REJASI

[illegible]

Izoh:

1. 1 kredit 30 akademik soatni tashkil qiladi.
2. GPA ko'rsatkichi avgust oyining uchinchi haftasida aniqlanadi.
3. Tanlov fanlari bloki OTM kengashi qarori bilan mehnat bozori va kadrlar buyurtmachilarining talablariga moslanuvchanlik va harakatchanlikni ta'minlovchi fanlar majmuasidan belgilanadi.
4. Harbiy tibbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari tanlov fanlari blokining soatlari hisobiga, harbiy yig'in esa ta'til vaqti hisobiga o'tkaziladi. Harbiy tibbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazilmaydigan hollarda ushbu soatlardan OTM kengashi qarori bilan mehnat bozori va kadrlar buyurtmachilarining ehtiyojlariga muvofiq mutaxassislik va tanlov fanlari uchun foydalaniladi.
5. O'quv reja asosida ishchi o'quv rejasini tuzishda talabalar yuklamasining haftalik hajmini saqlagan holda o'quv fanlari bloki hajmini 5% gacha, bloklar tarkibidagi fanlar hajmini 10% gacha o'zgartirish hamda auditoriya yuklamasining umumiy hajmini saqlagan holda ayrim semestrlarda haftalik yuklamalar hajmini erkin belgilash mumkin.
6. O'quv reja kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari va laboratoriya ishlari oliy ta'lim muassasi hamda bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.
7. Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarning malakaviy amaliyotlari bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.
8. Jismoniy tarbiya va sport fani fakultativ kurs sifatida talabaning ixtiyoriy tanlovi asosida sport sektsiyalarida tashkil etiladi.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari	Hafta	Semestr	Davlat attestatsiyasi
Nazariy ta'lim	150	1-10	Ixtisoslik fanlaridan birlamchi akkreditatsiya bilan yakuniy davlat attestatsiyasi
Amaliyot	20	1-9	
Attestatsiyalar	30	1-10	
Birlamchi akkreditatsiya bilan yakuniy davlat attestatsiyasi	4	10	
Ta'til	47	1-10	
Kredit ta'lim tizimiga kirish	1	1	
GPA ko'rsatkichini hisoblash	4	2,4,6,8	
JAMI	256		

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

M.K.Kurbanazarov

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i

N.Dj. Abdullaeva